



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - aprel

VI-60-71-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-dekabrda  
“O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xo‘jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-  
tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5890-son Farmoni asosida tumanda amalga  
oshirilayotgan ishlar bo‘yicha tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi  
boshlig‘ining hisoboti to‘g‘risida**

Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi boshlig‘i M.Gaziyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 9–dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xo‘jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5890–sonli Farmoni asosida tumanda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti eshilib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr–mulohazalarni inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi boshlig‘i M.Gaziyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–yil 9–dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xo‘jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5890–sonli Farmoni asosida tumanda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

### **2. Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (M.Gaziyev)ga:**

– tumandagi ta‘lim muassasalari joylashgan hududlarda yo‘l belgilari (“tezlikni cheklash”, “diqqat–bolalar”), piyodalar o‘tish joyi (zebra)ning holati va yaroqliligi, zarur joylarda qo‘shimcha o‘rnatish, eskirganlarini yangilash bo‘yicha ishlarni ikkinchi chorak yakuniga qadar tugallash;

– kadastr agenligi tuman bo‘limi (A.Tilovov), obodonlashtirish boshqarmasi (Q.To‘laganov)lar bilan hamkorlikda soha mutaxassislarini jalb etgan holda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “openbudjet.uz” rasmiy veb-saytidagi “mening yo‘lim” loyihasiga kiritilmay qolgan barcha yo‘llar kiritilishini ta‘minlash;

– amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritish vazifasi yuklatilsin.

**3. Tuman hokimi o‘rinbosari (U.Raxmatov) va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (M.Gaziyev)ga bir oy muddatda:**

– joylarda mahalla faollari, tashkilot va muassasalar rahbarlari bilan hamkorlikda ish tashkil etgan holda yo‘l harakati xavfsizligi masalalari bo‘yicha aholi uchun zarur va muammoli bo‘lgan masalalarni alohida nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati, “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Qarorda belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan **har chorakda** tegishli rahbarlar tomonidan xalq deputatlari Angor tumani Kengashi kotibiyatiga yozma axborot kiritib borilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Sadatov) zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov